

“TUPROQSIFATTAHLIL” DUK tomonidan 2022-yil davomida bajarilgan ishlar

HISOBOTI

O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” va “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, vazirlik tizimidagi "Tuproq tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan 2022-yil davomida Surxondaryo viloyati tumanlaridagi mavjud sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining **tuproqlar sifatini baholash** hamda xaritaga tushirish ishlari amalga oshirildi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida viloyatning jami **276 992 gektar** sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida tuproq sifatini baholash ishlari olib borildi hamda **kadastr guruhlariga** ajratildi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida viloyatning oldingi tur tuproq sifatini baholash natijalariga nisbatan hozirgi kundagi tuproq sifatini baholash ko‘rsatkichlari **0,2 ballga** oshganligi, ya‘ni Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan tuproqlarining meliorativ holati yaxshilanayotganligi kuzatildi.

Surxondaryo viloyatida tuproq sifatini baholashda tumanlarning o‘rtacha ball boniteti bo‘yicha quyidagi o‘zgarishlar aniqlandi.

Jumladan, Jarqo‘rg‘on tumanida 1,7 ballga, Angor tumanida 1,4 ballga, Boysun tumanida 1,2 ballga, Denov tumanida 1,1 ballga, Sherobod tumanida

0,8 ballga, Qumqo‘rg‘on tumanida 0,4 ballga, Qiziriq tumanida 0,3 ballga, Termiz tumanida 0,3 ballga, Muzrabot tumanida 0,2 ballga oshishi natijasida tuproqlarning meliorativ holati yaxshilanganligini shuningdek, Uzun tumanida

-1,5 ballga, Oltinsoy tumanida -0,7 ballga, Sho‘rchi tumanida -0,7 ballga va Sariosiyo tumanida -0,5 ballga pasayishi natijasida tuman tuproqlarining meliorativ holati yomonlashganligini kuzatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5853-son Farmoni, 2019-yil 14-martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4239-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida tuproqning agrokimyoviy tahlil tizimini takomillashtirish, ekin yerlarida tuproqning unumdorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 510-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, vazirlik tizimidagi "Tuproq

tarkibi va repozitoriysi, sifati tahlil markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan 2022-yil davomida **Surxondaryo** va **Andijon** viloyatining sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlarida tuproq tadqiqot ishlari bajarilib, har bir hudud (massiv) uchun 1:10 000 miqyosdagi tuproq **agrokimyoviy kartogrammalari** ishlab chiqilib, tuproqning asosiy ozuqa-elementlari bilan ta'minlanganlik darajasi hamda gumus miqdori, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bo'yicha ko'rsatkichlarga ajratildi. Qishloq xo'jaligini kimyolashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarini to'g'ri hal etish uchun tuproqning agrokimyoviy xossalarini o'rganish zarur. Tuproqlarni agrokimyoviy tekshirish va kartogrammalash ishlari avvalo, organik va mineral o'g'itlardan to'g'ri foydalanish imkonini beradi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida sug'oriladigan yer maydonlarida tuproq agrokimyoviy kartogrammalari ishlab chiqilib, tuproqning asosiy oziqa-elementlari bilan ta'minlanganlik darajasi hamda gumus miqdori, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bo'yicha ko'rsatkichlarga ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmonining O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha «YO'L XARITA»si (2-ilova) 4.28 bandida Qishloq xo'jaligi vazirligiga tuproqni tahlil qilishning mobil laboratoriyalari faoliyatini kengaytirish orqali tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'g'itdan foydalanishning samarali tizimini joriy etish, tuproq unumdorligini saqlash va yanada oshirish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilgan.

Yuqoridagi topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida "Tuproqsifattahlil" DUK tomonidan ISUZU HC-40 avtobusini maxsus laboratoriya ko'rinishida qayta jihozlanib 2 dona mobil laboratoriya ishlab chiqarishga tatbiq etildi. Mazkur mobil laboratoriya dala sharoitida ishlarni tashkil qilishga mo'ljallangan bo'lib – quyosh panellari va elektr generatorlari, "GNSS", "Navigator" kabi zamonaviy uskunar bilan jihozlangan. Suv saqlagich, havo sovitkich, havo aylanish tizimi mavjud. Ish jarayonida bir vaqtning o'zida 4 ta mutaxassis ishlay oladi. Laboratoriyaning tahlil imkoniyatlari keng bo'lib, unda 20 ta tuproq, 3 ta suv, 4 ta o'simlik namunari ustida tahlil ishlarini dala sharoitida o'tkazish mumkin.

Korxonamiz tomonidan 2022- yil davomida 2 ta universitet, 3 ta ilmiy tadqiqot insituti, 4 ta xorijiy korxonalar, 30 dan ortiq MCHJ va klasterlar, 25 dan ortiq fermer xo'jaliklari, 10 dan ortiq fuqorolar bilan ho'jalik hisobidan shartnoma asosida sifatli va qulay tuproq tahlil hizmatlarni ko'rsatdi. Shuningdek sohada faoliyat yuritayotgan 15 dan ortiq doktorantlar va talabalarga (maxsus chegirma) asosida tuproq tahlil laboratoriyasida tahlillarni aniqlash va be'vosita malaka oshirish xamda o'rgatish imkoniyati yaratildi.